

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

DAUKEEVA AYDIN ORALBAEVNA

**TALABALARDA O‘ZIGA ISHONCHI NAMOYON BO‘LISHINING
PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI
(Pedagogik oliy ta'lim muassasalari misolida)**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTASIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent- 2025

**Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора (DSc) по психологическим наукам**

**Abstract of the dissertation of Doctor
of Psychological Sciences (DSc)**

Daukeeva Aydin Oralbaevna

Talabalarda o'ziga ishonchi namoyon bo'lishining psixologik determinantlari
(Pedagogik oliy ta'lim muassasalar misolida)..... 3

Даукеева Айдын Оралбаевна

Психологические детерминанты проявления уверенности в себе у
студентов (на примере педагогических высших учебных заведений)..... 29

Daukeeva Aydin Oralbaevna

Psychological determinants of self-confidence in students (on the example of
pedagogical higher educational institutions)..... 57

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 62

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

DAUKEEVA AYDIN ORALBAEVNA

**TALABALARDA O‘ZIGA ISHONCHI NAMOYON BO‘LISHINING
PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI
(Pedagogik oliy ta'lim muassasalari misolida)**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTASIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent- 2025

Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/P122 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.psi-ik.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Rasmiy opponenlar:

Abdurasulov Rustamjon Abduraimovich
Psixologiya fanlari doktori, professor

Shamsiev O‘ktam Baxriddinovich
Psixologiya fanlari doktori, professor

Qabulov Qosimboy Pirjonovich
Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Ma'mun universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD03/30.12.2021.P.26.02 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil «_____» kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32; faks (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «___» _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A. Akramova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.B. Atabaeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Z.T. Nishanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda jismoniy va aqliy jihatdan barkamol bo'lgan o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, ularning biror sohaga yo'nalgan iqtidorini o'z vaqtida qo'llab-quvvatlash, asosiysi faoliyat muvaffaqiyati uchun o'ziga ishonchini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Dunyoning yetakchi ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Edutopia tomonidan 2019-yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra¹, AQShdagi pedagoglarning 75% dan ortig'i o'z ustida ishlash faoliyati jarayonida yetarlicha ishonchni his qilmasliklari, National Center for Education Statistics² (NCES) ma'lumotlariga ko'ra, pedagoglarning 20 % gacha bo'lgan qismi o'z ishi bilan bog'liq stress va ishonch bilan bog'liq muammolarni his qilishi, European Commissionning 2020-yildagi hisobotiga ko'ra³ esa Yevropaning ayrim mamlakatlarida bo'lajak pedagoglarning 30% dan ortig'i o'ziga ishonchni rivojlantirishda muammolarga duch kelishi, OECD⁴ning 2020-yildagi ma'lumotlariga ko'ra, global miqyosda pedagoglarning 50% gacha bo'lgan qismi o'z ishining samaradorligini va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish uchun qo'shimcha professional ta'lim olishiga ehtiyoji ortib borayotganligi qayd etilgan. Bunday statistic ko'rsatkichlar shahsning psixik voqelikka ta'sir etuvchi ichki, tashqi, ijtimoiy, tabiiy omillarini aniqlash, psixik imkoniyatlarni optimallashtirish usullarini ishlab chiqish va tatbiq etish zaruratini yaratadi va bu muammo dolzarb ahamiyatli bo'lib qolmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida shaxsda o'ziga ishonchi namoyon bo'lishining psixologik determinantlari muammosini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Zero, insonning ijtimoiy taraqqiyoti, shaxs sifatidagi faolligi, o'zini-o'zi rivojlantirib borishi ko'p jihatdan ushbu muammoning ijobiy hal qilinishiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Chunonchi, Yevropa Ittifoqidagi Finlyandiyada 2019-yilda o'tkazilgan tadqiqotdan aniqlanganki, o'ziga yuqori ishonchga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchilarning 85% i ta'lim sohasida o'z kasbiy maqsadlariga erishganlar. O'ziga ishonchi past bo'lganlarda esa bu ko'rsatkich 55% ni tashkil etgan. Bu borada o'ziga ishonch fenomenining o'ziga xos qonuniyatlarini, shaxs faoliyati samaradorligi uchun ta'sirini, shaxsda qat'iyat, tashabbus hamda sobitqadamlik uchun zaruriy jihatlarni ilmiy tadqiq etish hamda rivojlantirish yuzasidan ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini olib borish zarurati yuzaga keladi va bu muammo dolzarb ahamiyatlidir.

Yangi O'zbekiston so'nggi yillarda yoshlarning ijtimoiy faolligini ta'minlash, o'ziga ishonchini yuksaltirish, irodaviylik, shaxsiy javobgarlik tuyg'ularini shakllantirish zarurati ko'rinadi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan ta'lim tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha maqsad va rejalarga ko'ra ilgari surilayotgan "Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni zimmasiga olishga qodir yangi avlodni tarbiyalash"⁵ tamoyiliga asoslanib, mamlakatimizda ta'lim olayotgan yoshlarni

¹ <https://www.edutopia.org/article/implementing-student-surveys/>

² <https://nces.ed.gov/>

³ https://www.oecd.org/en/publications/talis-2018-results-volume-i_1d0bc92a-en.html

⁴ https://www.oecd.org/en/publications/talis-2018-results-volume-i_1d0bc92a-en.html

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2023 yil 29 sentyabr /<https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-29-09-2023>

har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash, ularni ilmiy, ta'limiy, tarbiyaviy, ijodiy, ma'naviy barkamol qilib va eng muhimi o'ziga bo'lgan ishonch hissini rivojlantirish borasidagi konseptual g'oyalar bo'yicha tegishli huquqiy-me'yoriy asoslar yaratilgan. 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi e'lon qilgan ma'lumotlariga ko'ra, pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun 20 mingdan ortiq amaliyot joylari tashkil etilib, amaliyot o'tgan talabalarda o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, 75% talaba o'ziga bo'lgan ishonchini oshirganligini bildirganlar. Bu borada pedagoglarning o'ziga bo'lgan ishonch hissini rivojlantirish, psixologik ichki to'siqlarni bartaraf etish muammosini ustuvor vazifalar sifatida qarab, zarur chora-tadbirlarini amalga oshirishda mazkur tadqiqot muhim asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-may O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston–2030» strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son «Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» Farmonlari, 2018-yil 19-apreldagi PQ-3674-son «O'zbekiston Respublikasi innovasion rivojlanish vazirligi huzurida ilg'or texnologiyalar markazini tashkil qilish to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida», 2020-yil 15-maydagi 287-son «O'zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsion tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tiziminishakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁶.

Talabalarning o'ziga bo'lgan ishonch hissini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning quyidagi yetakchi ta'lim tashkilotlari va ilmiy tadqiqot markazlarida, jumladan: Kaliforniya universiteti (AQSH), Stenford universiteti (AQSH), Swale Academies Trust instituti (Buyuk Britaniya), Amerika Psixologik Assotsiatsiyasi (AQSH); Bergich Universiteti (Germaniya), Melbrun Universiteti (Avstraliya), National University of Singapore (Singapur), Trento Universiteti (Italiya), Seoul of National University (Janubiy Koreya), Sorbonna universiteti (Fransiya); Ta'lim tizimida psixologik xizmat ko'rsatish Federal resurs markazi (Rossiya), RFA huzuridagi Psixologiya ilmiy-tadqiqot instituti (Rossiya) hamda M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya) larida olib borilmoqda.

⁶<https://www.universityofcalifornia.edu>, www.stanford.edu, www.manchester.ac.uk, <https://www.apa.org>, [www.uni-wuppertal](http://www.uni-wuppertal.de), www.unimelb.edu.au, <https://nus.edu.sg>, www.unitn.it, <https://en.snu.ac.kr>, <https://www.sorbonne-universite.fr/en>, <http://www.mapn.su>, www.pirao.ru, msu.ru.

Jahonda talabalarining o'ziga ishonch hissini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar turli universitetlarda olib borilmoqda, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: Jiangsu universitetida (Xitoy) COVID-19 pandemiyasi davrida onlayn ta'lim tajribasi talabalar, xususan, kelajakdagi o'qituvchilar uchun o'ziga ishonchni qanday shakllantirganligi o'rganilgan; Swale Academies Trust kabi ta'lim tashkilotlari keng qamrovli kasbiy rivojlanish dasturlari (Buyuk Britaniya); inklyuziv ta'lim sharoitlarida o'qituvchilar uchun ishonch darajasi (Kaliforniya universiteti, AQSH); o'qituvchi sifatida ishlash uchun to'liq tayyorgarlik ko'rgan bo'lajak pedagoglarning o'ziga bo'lgan ishonch darajasini o'rganish; (Stenford universiteti, AQSH); amaliyot tajribasi orqali o'qituvchilarda ishonch hissini mustahkamlash (Amerika Psixologik Assotsiatsiyasi, AQSH); ta'lim sifati orqali o'qituvchilarda ishonch hissini rivojlantirish (Bergich Universiteti, Germaniya); kasbiy rivojlanish kurslari va malaka oshirish dasturlari orqali o'qituvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish (Melbrun Universiteti Avstraliya).

Jahonda talabalarda ishonch hissini rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotgan talabalarda o'ziga ishonch hissiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash orqali yangicha zamonaviy psixologik usullarni taklif etish, individual-tipologik, hissiy-emotsional holatlariga ta'sirini psixodiagnostika qilish va korreksiyalash asosida ularning faoliyatini pedagogik-psixologik jihatdan takomillashtirish kabilar shular jumlasidandir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston psixolog olimlaridan B.S.Abdullayeva, Sh.R.Baratov, M.M.Bafayev, M.G.Davletshin, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, R.S.Samarov, G.Sh.Salomova, O.T.Shirinov va boshqalar⁷ning ilmiy ishlarida kasbiy rivojlanish, kasbiy tolerantlik bilan bog'liq ishonch hissini rivojlantirish orqali pedagogik-psixologik barqarorlikni ta'minlash masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan K.A.Abulxanova-Slavskaya, R.G.Abdulatifov, B.G.Ananev, J.A.Abisheva, A.G.Asmolov, Y.V.Arutyunyan, L.N.Gumilev, A.A.Rean, V.G.Kriskov, D.A.Leontev, T.G.Stefanenko, V.A.Shkuratov va boshqalar⁸ talabalarining psixologik jihatlarini, jumladan, o'z-o'ziga ishonchni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

⁷Abdullayeva B.S. Bo'lajak o'qituvchilar o'quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasining psixofiziologik determinantlari: Monografiya. –T.: «Bookmany print» nashriyoti, 2021 y. – 162 b.; Baratov Sh.P. Социально-психологические и научно-практические основы создания психологической службы в Узбекистане. Автореферат дисс.докт.психол.наук.–Т.1998.–37с.; Bafayev M.M. Globallashuv jarayonida milliy bag'rikenglikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik determinantlari. Psix.f.n.dis. - T., 2020. - 155 b.; Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'quvchisining psixologiyasi. T., O'zbekiston. - 30 b.; Jabborov A.M. Faoliyat va hulq atvor motivatsiyasi. – Toshkent: Universitet. 2003. – 168 b.; Karimova V.M. Oila kontekstida yoshlarda etnopsixologik sifatlarni targ'ib etishning ayrim metodologik tamoyillari // “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal - (SI) II/2020. – 76-78 b.; Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: Psix.f.dok.dis. - T., 2005. - 391 b.; Samarov R.S. Shaxsda milliy xususiyatlarni kamol toptirishda “homo ethnicos” fenomeni: ijtimoiy va etnopsixologik talqin // Shaxsda ilmiy dunyo qarash rivojlanishining psixologik imkoniyatlari va tarbiyaviy jihatlari / Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2019. 23-27 b.; Salomova G.Sh. Talaba-yoshlarda etnomadaniy kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psix.f.n.dis. - T., 2020. - 179 b.; Shirinov O.T. Ta'lim tizimida yoshlarni etnomadaniyatga qadiryatli munosabatini shakllantirishning ijtimoiy psixologiyasi. Psix.f.n.dis. - T., 2023. - 146 b.

⁸Абульханова-Славская К.А. Деятельность и психология личности. - М.: Наука, 1980. - 335 с.; Абдулатипов Р.Г. Этнополитология. - СПб.: Питер, 2004. - С.15-36.; Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. - М., 2000 – 232с.; Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. - М., 2000 – 232с.; Абишева Ж.А. Этническая “Я – концепция” // Вестник практической психологии образования. - 2009. - №1. - С. 74-76.;Асмолов А.Г. Оптика просвещения:

Xorijiy psixolog olimlardan Z.Freyd, J.Gilford, R.E.Fansher, Y.Fromm, N.Kogan, R.Plutshik, U.Neisser, W.Sshneider, S.Spearman, L.F.Xiggs, M.A.Wollach va boshqalar⁹ tomonidan talabalarni psixologik qo'llab-quvvatlash, ishonch hissini rivojlantirishga qaratilgan ko'plab ilmiy ishlar olib borishgan

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsion tadqiqot O'zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Psixologiya tarixini o'rganish, umumiy psixologiya mazmunini o'zlashtirish, shaxs psixologiyasini tasniflash, psixofiziologik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, tibbiy va kasb psixologiyasi qonuniyatlarini o'rganish, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya hamda yosh davrlari va pedagogik psixologiyaning konsptual asoslarini tadqiq qilish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2021-2024 y.y.).

Tadqiqotning maqsadi talabalarining o'ziga ishonchini namoyon bo'lishning psixologik determinantlarini aniqlash va zarur tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarining o'ziga ishonchini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

talabalarining o'ziga ishonch hissini rivojlanishini dinamik xususiyatlarini tadqiq etish;

talabalardagi o'ziga ishonch hissining shaxs refleksiya darajasiga bog'liq tomonlarini tadqiq etish;

pedagogik ta'lim jarayonida o'zaro munosabatlaridagi konstruktiv muloqat ko'nikmasini shaxsning oziga ishonchni rivojlanishiga tasirini tadqiq etish

talabalar uchun o'ziga ishonchni rivojlantirishga qaratilgan psixologik model va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti talabalarining o'ziga ishonchi namoyon bo'lishining psixologik determinantlarini o'rganish jarayoni belgilangan bo'lib, tadqiqotga O'zbekiston milliy pedagogika universitetidan 150 nafar, Buxoro davlat universitetidan 120 nafar,

социокультурные перспективы. - М.: Просвещение, 2015. - 447 с.; Арутюнян Ю.В., Дробижина Л.М., Сусоколов А.А. Этносоциология. - М.: Аспект Пресс, 1999.; Гумилев Л. Н. Этногенез и биосфера Земли. 2-е изд., испр. и доп. - Л.: Университет. 1989. - 496 с.; Реан А.А. Психологические факторы молодежного экстремизма // Аняньевские чтения - 2012. Психология образования в современном мире. - СПб., 2012. - С.66-67.; Крысько В. Г. Этническая психология. - М.: Academia, 2011. - 320 с.; Леонтьев Д.А. От социальных ценностей к личностным: социогенез и феноменология ценностной регуляции деятельности // Вестник моск. ун-та. Сер. 14. Психология, 1996. - № 4. - С.35-44.; Стефаненко Т.Г. Этнопсихология. - М.: Академический проект, 2000. - 320 с.; Шкуратов В.А. Историческая психология. Книга первая. Введение в историческую психологию. - 3-е, расширенное издание. - М.: КРЕДО, 2015. - 244 с.

⁹Фрейд З. Введение в психоанализ: Лекции. М.: Наука, 1991.- 456 с. Dodd D. H.White R. M. Cognition: Mentalstructureandprocesses. Boston: AllynandBacon, Inc. 1980.; Guilford J.T. The ature of Humanintelligence. N.Y.: McGraw-Hills, 1967. 538 p. 9.; Fancher R.E. The intelligence men: Makersot the IQ controversy. N.Y. Norton, 1985.; 163. Фромм Э. Автоматический конформизм. / В кн.: История зарубежной психологии (30 -60-е г.г. 20 в.) - М.: Изд - во МГУ, 1986. - С. 24-30; Spearman C. The abilitiesofman. N. Y., 1927.; Wollach M.A., Kogan N.A new look of the creativity - intelligencedistinction. J. of Personality. 1965. V. 33. № 3. P. 348-369.; 212. Plutchik R., Kellermann H., Conte H.R. A structural theory of ego defences and emotions //Isard C. E. (ed.) Emotions in personality and psychopathology. N.Y.: Plenum, 1979. - P. 229-257.; Neisser U. etc. Intelligence: Knownsand Unknowns AmericanPsychologist. 1996. V. 51. № 2. P. 77-101.; Schneider W. Acquiringexpertise: Determinants of exceptionalperfomance. In: Internationalhandbook of Researchand Development of Giftedness andTalent. Oxford: Pergamon. 1990. P. 311-324.; Spearman C. The abilities of man. N. Y., 1927.; Higgins L. F. (1996) A Comparison of Scales for Assessing Personal Creativity in IS / L. F. Higgins // Proceedings of the 29th Annual Hawaii International Conference on System Sciences. - 1996. - pp. 13-19.; Wollach M.A., Kogan N.A new look of the creativity - intelligencedistinction. J. of Personality. 1965. V. 33. № 3. - P. 348-369.

Nukus davlat pedagogika institutidan 180 nafar, jami 450 nafar talabalar respondentlar sifatida tadqiqotga jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini talabalarning o'ziga ishonchi namoyon bo'lishining psixologik determinantlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida suhbat, anketa, kuzatish, metodlaridan, shuningdek, M.Rozenbergning "Ishonch shkalasi" testi, V.Stefansonning "Guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasini o'rganish metodikasi", V.V.Stolin va S.R.Panteleevning "Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash metodikasi", A.V.Karpovning "Shaxsdagi refleksiya darajalarini o'rganish metodikasi", V.Smekal va M.Kucheraning "Shaxs yo'nalganligini aniqlash metodikasi" hamda hammualliflikda ishlab chiqilgan "Talabalarda o'ziga ishonchini rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini aniqlovchi" (B.S.Abdullayeva; A.O.Daukeeva) so'rovdan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Studentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti, faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning o'ziga ishonchini rivojlanishi shaxsiy, kasbiy, jamoaviy, institutsional, ijtimoiy darajasini baholashda shaxsning o'z o'ziga munosabati, o'ziga ishonch, shaxs yo'nalganligining psixologik xususiyat negizida ustuvor namoyon bo'lishiga asoslanib, emotsional barqororlik, kognitivlik omillariga bog'liq ekanligi dalillangan;

talabalarning o'ziga ishonch hissini rivojlanishi shaxsning o'zini boshqarishi, talabalarning o'zini emotsional qabul qilishi va o'ziga hissiy munosabatini yoshga oid sifatlarga bog'liq ravishda ustuvor namoyon bo'lishiga asoslanib, dinamik xususiyatga ega ekanligi asoslangan;

talabalarda o'ziga ishonchining psixologik xususiyatlari ikkinchi kurslarda vaziyatni tezkor baholash, muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilish (vaziyatli), to'rtinchi kurslarda o'z faoliyati, qarorlari va natijalarini baholash orqali o'zini anglash (retrospektiv), kelajakdagi vaziyatlarni oldindan baholash (perspektiv) sifatlarining ustuvorligiga asoslanib, shaxsdagi refleksiya darajasiga bog'liq ekanligi dalillangan;

pedagogik ta'lim jarayonida o'zaro munosabatlaridagi samimiylik, konstruktiv muloqat ko'nikmasini barqarorlashtirishda o'ziga ishonchni ko'rsatib beruvchi subektiv omillar o'ziga ishonch, o'zini idora qilish, o'zini qabul qilish, o'ziga munosabat hissini (o'ziga emotsional munosabat), kognitiv (o'z o'zini tavsiflash) xususiyatlarni ustuvorligi tufayli talabalarning o'ziga ishonchini rivojlanishi psixologik xususiyatga ega ekanligi dalillangan;

talabalarda o'ziga ishonchini rivojlantirishning psixologik modeli shaxsdagi refleksiv jarayonlarni shakllanishiga erishish muhimligi tufayli "mustaqillik", "o'ziga yo'nalganlik" komponentlarini kiritish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalardada o'ziga ishonch hissini rivojlantirish qobiliyatini psixodiagnostik baholashga mo'ljallangan ayrim metodikalar guruhi tizimlashtirilgan;

talabalarning kelgusidagi kasbiy faoliyatining muvaffaqiyati sanalgan kasbiy muhim sifatlar, shaxslilik sifatleri, psixologik sifatlar, motivatsion soha imkoniyatlari, pedagogik refleksiya va davogarlik darajasi kabi fenomen tushunchalarning tabiati batafsil yoritib berilgan va amaliyotga kiritilgan.

oliy ta'lim muassasalari talabalarda, o'ziga ishonch hissini tarbiyalashning uslubiy jihatlari va psixologik o'ziga xosliklari o'rganilib, aprobatsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Muammoning aniq qo'yilganligi, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, ma'lumotlarning reprezentativligi, empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko'rsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbaalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, natijalar «Ms Excel», «SPSS 24.0» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalarining o'ziga ishonch hissini rivojlantirishning psixologik xususiyatlariga oid nazariy hamda metodologik jihatdan yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan bo'lib, shuningdek, qo'lga kiritilgan natijalardan oliy ta'lim muassasalarida "Pedagogik psixologiya", "Differensial psixologiya" va "Shaxs psixologiyasi" fanlarini ilmiy manbaalar bilan boytishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalari tizimida psixologik xizmatni samarali tashkil etish hamda talabalarining o'ziga ishonch hissini rivojlantirish, ularning kamol topishiga keng miqyosda yordam berish, ta'lim tizimida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda aniq hamda tizimli rejalar asosida xarakter qilish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonlarni rivojlantirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarda o'ziga ishonchi namoyon bo'lishning psixologik determinantlari bo'yicha olingan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari asosida:

talabalarining o'ziga ishonchini rivojlanishi shaxsiy, kasbiy, jamoaviy, institutsional, ijtimoiy darajasini baholashda shaxsning o'z o'ziga munosabati, o'ziga ishonch, shaxs yo'nalganligining psixologik xususiyat negizida ustuvor namoyon bo'lishiga asoslanib, emotsional barqororlik, kognitivlik omillariga bo'g'liq ekanligi dalillanganligiga oid ilmiy ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yili 9-noyabrdagi 241-son buyrug'iga asosan "Kasb psixologiyasi" moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yili 13-noyabrdagi 241a son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilarning o'ziga ishonchini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirilgan;

talabalarining o'ziga ishonch hissini rivojlanishi shaxsning o'zini boshqarishi, talabalarining o'zini emotsional qabul qilishi va o'ziga hissiy munosabatini yoshga oid sifatlarga bog'liq ravishda ustuvor namoyon bo'lishiga asoslanib, dinamik xususiyatga ega ekanligi asoslanganligiga oid ilmiy ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yili 9-noyabrdagi 241-son buyrug'iga asosan "Ijtimoiy psixologiya" moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yili 13-noyabrdagi 241a son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilarning o'ziga ishonchini rivojlanishi dinamik xususiyatga ega ekanligi aniqlashtirilgan;

talabalarda o'ziga ishonchining psixologik xususiyatlari ikkinchi kurslarda vaziyatni tezkor baholash, muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilish (vaziyatli), to'rtinchi kurslarda o'z faoliyati, qarorlari va natijalarini baholash orqali o'zini anglash (retrospektiv), kelajakdagi vaziyatlarni oldindan baholash (perspektiv) sifatlarining ustuvorligiga asoslanib, shaxsdagi refleksiya darajasiga bog'liq ekanligi dalillanganligiga oid ilmiy ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yili 9-noyabrdagi 241-son buyrug'iga asosan "Ijtimoiy psixologiya" moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yili 13-noyabrdagi 241a son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilarning o'ziga ishonchini rivojlanishiga shaxsdagi refleksiya darajasiga bog'liq ekanligi aniqlashtirilgan;

pedagogik ta'lim jarayonida o'zaro munosabatlaridagi samimiylik, konstruktiv muloqat ko'nikmasini barqarorlashtirishda o'ziga ishonchni ko'rsatib beruvchi subektiv omillar o'ziga ishonch, o'zini idora qilish, o'zini qabul qilish, o'ziga munosabat hissini (o'ziga emotsional munosabat), kognitiv (o'z o'zini tavsiflash) xususiyatlarni ustuvorligi tufayli talabalarining o'ziga ishonchini rivojlanishi psixologik xususiyatga ega ekanligi dalillanganligiga oid ilmiy ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yili 9-noyabrdagi 241-son buyrug'iga asosan "Muloqot psixologiyasi" moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yili 13-noyabrdagi 241a son ma'lumotnomasi). Natijada pedagogik ta'lim jarayonida o'zaro munosabatlaridagi determinantlar aniqlashtirilgan;

talabalarda o'ziga ishonchini rivojlantirishning psixologik modeli shaxsdagi refleksiv jarayonlarni shakllanishiga erishish muhimligi tufayli "mustaqillik", "o'ziga yo'nalganlik" komponentlarini kiritish asosida takomillashtirilganligiga oid ilmiy ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yili 9-noyabrdagi 241-son buyrug'iga asosan "Ijtimoiy psixologiya" moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yili 13-noyabrdagi 241a son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarda o'ziga ishonchini namoyon bo'lishining psixologik modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqotning asosiy natijalari bo'yicha 1 ta monografiya, 14 ta ilmiy maqola, 10 tasi O'zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda, shu jumladan, 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsion ish kirish, to'rt bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi ilovalarsiz 250 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, zarurati, maqsad va vazifalar belgilangan, metodlar, obyekt va predmet ko'rsatilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotda tadbiq etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Talabalarda o'ziga ishonch hissini rivojlantirishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida talabalarning o'ziga ishonchini rivojlantirish psixologik fenomeni, o'ziga ishonchni rivojlantirishning psixologik asoslari, hozirgi holati, uning ko'rinishlari, mexanizmlarining asosiy nazariy tushunchalarning tahliliy sharhi keltirilgan.

Ushbu bobda talabalarning o'ziga ishonchini rivojlantirish muammosi bo'yicha ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan olib borilgan izlanishlarining empirik ma'lumotlari tahlili keltirilgan. O'zini-o'zi nazorat qilishni muammo sifatida xorij olimlaridan A. Bandura, K. Rojers, F. Skinner, J. Henley, A. Adler, J. Greenberg, V. Reyx, G. Sullivan, Z. Freyd, K. Xorni, E. Erikson, K. Yung, J. Uotson va boshqalarning tadqiqotlarida aks etgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan A. N. Suxov, A. A. Derkach, E. B. Sagarelli, P. K. Anoxin, I. P. Pavlov, I. M. Sechenov, B. G. Ananov, M. Y. Basov, A. F. Lazurskiy, A. G. Asmolov, N. D. Zavalova, V. P. Zinchenko, F. E. Ivanov, O. A. Konopkin, A. K. Osnisky, S. L. Rubinshtein, V. I. Stepankiy, V. D. Shadrikov, G. P. Shchedrovskiy kabi olimlar tizimli-faoliyat yondashuvi doirasida biz o'ziga ishonchni rivojlantirish, psixik holatlarni boshqarish, aqliy o'ziga ishonchni rivojlantirish bilan bog'liq qonuniyatlar sifatida yondashish kabi masalalarni tadqiq etishgan.

O'zbek olimlaridan G. B. Shoumarov, Sh. R. Baratov, X. A. Ruxieva, A. A. Fayzullaev, V. M. Karimova, Z. T. Nishanova, M. Vohidov, T. Buzraliyev, G. Tursunova, A. Sattarov, R. Kholikov, D. Axmedova, A. A. Fayzullayev, Z. T. Nishonova, N. I. Xalilova va boshqalarning tadqiqotlarida o'z-o'zini ob'ektiv baholash, o'ziga ishonch hissini shakllanishida irodaviy, refleksiv xususiyatlarning ta'siri bilan bog'liq masalalar tadqiq etilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Talabalarning o'ziga ishonchini rivojlantirishning psixologik jihatlari**» deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda talabalarning o'ziga ishonchini takomillashtirishning psixologik shartlari, o'ziga ishonch hissini rivojlantirishning psixologik komponentlari, namoyon bo'lish xususiyatlari hamda talabalarning o'ziga ishonchini takomillashtirish uchun psixologik shartlar o'z aksini topgan. So'nggi yillarda jahon psixolog olimlari tomonidan ishonch fenomenini o'rganish tobora ko'payib bormoqda. Bu atama 1971 yilda S. Djurardom tomonidan taklif qilingan bo'lib, ishonch tushunchasini u shunday ta'riflaydi: "shaxsning o'zi haqida boshqa insonlarga nisbatan shaxsiy ma'lumotlarga ega bo'lishi, ya'ni "xabar" ma'nosini bildiradi". Birinchi marta P. Laskou tomonidan "ishonch" hissini o'rganish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Bundan tashqari mazkur bobda bo'lajak o'qituvchilarning o'ziga ishonchini rivojlantirishning mezonlar mohiyati ochib berilgan.

Dissertatsiyaning «**Talabalarning o‘ziga ishonchini rivojlantirishning tadqiq etilishi**» deb nomlangan uchinchi bobi o‘rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo‘llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o‘tkazish tartibi, olingan natijalarning tahlili va korrelyatsion bog‘lanishlar o‘z aksini topgan.

1-jadvalda “O‘z xulq-atvorini tartibga solish uslubi” olingan natijalar keltirilgan.

1-jadval

“O‘z xulq-atvorini tartibga solish uslubi” metodikasi natijalari, (n=450)

Shkalalar	O‘rtacha(M)		Farqlar
	2-kurs n=240	4-kurs n=210	t
Qaramlik	6,1	5,8	-1,4
Mustaqillik	5,4	6,7	-2,3*
Muloqotmandlik	6,1	8,4	-2,6*
Odamovilik	7,6	5,5	-2,1*
Kurashga tayyorlik	5,1	7,8	-2,2*
Kurashdan qochish	6,4	7,3	-1,4

“O‘z xulq-atvorini tartibga solish uslubi” metodikasi natijalari tahliliga o‘tadigan bo‘lsak, bir qator omillarda ishonchli farqlar kuzatildi. Jumladan, “mustaqillik” ($t=-2,3; p<0,05$), “muloqotmandlik” ($t=-2,6; p<0,05$), “odamovilik” ($t=-2,1; p<0,05$) hamda “kurashga tayyorlik” ($t=-2,2; p<0,05$) omillarida ahamiyatli farqlar kuzatildi.

“Mustaqillik” omili bo‘yicha ham kurslar kesimida sezilarli tafovut aniqlanib, 4-bosqich talabalar yuqori natijani qayd etdi ($t=-2,4; p<0,05$). Bu statistik ko‘rsatkich, 4-bosqich talabalarining mustaqillik darajasining boshqa 2-bosqichdagi talabalar bilan solishtirganda sezilarli darajada yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Jumladan, talabalarga o‘z mustaqil ishlarini amalga oshirish va o‘z qarorlarini qabul qilishda yordam berish uchun amaliy loyihalar va tajriba orttirish imkoniyatlari yaratilishi ulardagi o‘ziga ishonch darajasini oshirishda yordam beradi. 4-bosqich talabalarining mustaqillik darajasi yuqori bo‘lishi, ularning tajriba va malakasi oshganini, shuningdek, o‘qish davomida mustaqil yondashuvlarni qo‘llashga tayyorligini ko‘rsatadi. Bu, o‘z navbatida, ularning professional faoliyatlariga vapedagogik malakalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Metodikadagi “muloqotmandlik” omili bo‘yicha 4-bosqich talabalarida yuqori natija kuzatildi ($t=-2,6; p<0,05$). Bizningcha, statistik ko‘rsatkichlardan ma’lum bo‘ldiki 4-bosqich talabalarining muloqotmandlik darajasi boshqa bosqichlardagi talabalar bilan solishtirganda sezilarli darajada yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Bu natijalar statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini anglatadi. Shuningdek, 4-bosqich talabalarining muloqotmandlik darajasi yuqori bo‘lib, bu ularning samarali muloqot qilish qobiliyatini, ochiq fikr almashish, samarali muloqot o‘rnatish va guruh ishida faol ishtirok etish qobiliyatlarini ko‘rsatadi.

Keyingi “odamovilik” omilida ham sezilarli tafovut mavjud bo‘lib, 2-bosqich talabalar 4-bosqich talabalariga qaraganda yuqori natijani qayd etdi ($t=-2,1; p<0,05$). Mazkur natijalar tahliliga ko‘ra, 2-bosqich talabalarida boshqalar bilan samimiy, ehtiyotkorlik bilan va insoniylikni saqlagan holda muloqot qilish qobiliyati mavhudligi

aniqlandi. Bo'lajak o'qituvchilar uchun bu omil muhim ahamiyatga ega, chunki ularning ishida boshqalarga hurmat ko'rsatish, ular bilan samarali muloqot qilish va ta'lim jarayonida insoniylikni saqlash kerak.

Keyingi "kurashga tayyorlik" omilida ham sezilarli tafovut mavjud bo'lib, 4-bosqich talabarlari 2-bosqich talabalariga qaraganda yuqori natijani qayd etdi ($t=-2,2$; $p<0,05$). Natijalar tahliliga ko'ra talabalarining kurashga tayyorlik darajasi 2-bosqich talabalariga qaraganda sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bu natijalar statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini anglatadi. Shuningdek, 4-bosqich talabalarining kurashga tayyorlik darajasining yuqori bo'lishi ularning o'qish davomida orttirgan tajribasi, amaliyot va qiyin vaziyatlarga duch kelish tajribasiga bog'liq ekan. 2-bosqich talabalarida kurashga tayyorlik darajasi pastroq bo'lishi, ularning hali to'liq tajribaga ega emasligi, qiyin vaziyatlar bilan uchrashmaganligi bilan belgilanadi.

2-jadval

"Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash" metodikasi natijalari, (n=450)

Shkalalar	O'rtacha(M)		Farqlar
	2-kurs n=240	4-kurs n=210	t
Samimiylik	7,4	8,5	-1,5
O'z-o'ziga ishonch	6,1	9,7	-3,2*
O'z-o'zini idora qilish	7,2	9,1	-2,4*
O'z-o'ziga munosabatning aks etishi	7,5	9,4	-2,5*
O'z-o'zini qabul qilish	6,5	8,6	-2,3*

2-jadvalda "Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash" metodikasi natijalaridan ko'rinadiki, «o'z-o'ziga ishonch» ($t=3,2$; $p\leq 0,05$), «o'z-o'zini idora qilish» ($t=2,4$; $p\leq 0,05$), «o'z-o'ziga munosabatning aks etishi» ($t=2,5$; $p\leq 0,05$) hamda «o'z-o'zini qabul qilish» ($t=2,3$; $p\leq 0,05$) omillarida ishonchi farqlar kuzatildi.

Metodikaning «o'z-o'ziga ishonch» omili bo'yicha 4-bosqich talabarlari yuqori natija qayd etildi ($t=3,2$; $p\leq 0,05$). Buni esa ularning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchi yuqori darajada ekanligi, muloqotda dadilligi bilan izohlaymiz. 4-bosqich talabalarining o'z-o'ziga ishonch darajasi 2-bosqich talabalariga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich 4-bosqich talabalarining o'z-o'ziga ishonchi ancha yuqori ekanligini ta'kidlaydi. 4-bosqich talabalarining o'z-o'ziga ishonch darajasi yuqori bo'lib, ular o'z malakalariga, qobiliyatlariga va pedagogik faoliyatlariga nisbatan ishonch bilan yondashishlarini bildiradi. Mazkur natija ularda o'rganish jarayonida o'zlarining o'z-o'ziga ishonchlarini rivojlantirganligini ko'rsatadi.

Metodikaning «o'z-o'zini idora qilish» omili bo'yicha ham 4-bosqich talabarlari yuqori natijani ko'rsatdi ($t=2,4$; $p\leq 0,05$). Natijalar tahlilidan shu ma'lum bo'ladiki, ularning o'z his-tuyg'ulari, fikrlari va xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyati, o'z vaqtini boshqarish, stressni nazorat qilish, maqsadga erishish yo'lida harakat qilish va professional rivojlanish darajasi yuqori ekanligi kuzatildi. 4-bosqich talabalarining o'z-o'zini idora qilish darajasi 2-bosqich

talabalariga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bu natijalar statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini anglatadi. Jumladan, 4-bosqich talabalarining o'z-o'zini idora qilish darajasining yuqori bo'lishi, ularning tajribasi, malakasi va pedagogik faoliyat davomida orttirgan ko'nikmalarining natijasidir. Ularning o'z-o'zini idora qilish qobiliyatlari yuqori bo'lishi, ular qiyin vaziyatlarda muvaffaqiyatli bo'lishlari va professional rivojlanishlarida ijobiy rol o'ynaydi.

Keyingi «o'z-o'ziga munosabatning aks etishi» omilida 4-bosqich talabari yuqori natijani qayd etdi ($t=2,5$; $p\leq 0,05$). Mazkur natijalar tahliliga ko'ra, ularda o'z-o'ziga munosabatning aks etishi, ularning o'z xatti-harakatlari, qarorlari va his-tuyg'ularini baholash, o'z tajribalarini tahlil qilish, o'zini rivojlantirishga qaratilgan qarorlar qabul qilish, o'zini tahlil qilish va o'zini anglash jarayoni yuqori ekanligi aniqlandi. 4-bosqich talabalarining o'z-o'ziga munosabatning aks etishi darajasi 2-bosqich talabalariga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bu natijalar statistik jihatdan ahamiyatli ekan. Jumladan, 4-bosqich talabalarining o'z-o'ziga munosabatning aks etishi darajasining yuqori bo'lishi, ularning shaxsiy va professional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Metodikamizning so'ngi «o'z-o'zini qabul qilish» omili bo'yicha, 4-bosqich talabari yuqori ko'rsatkichni qayd etdi ($t=2,3$; $p\leq 0,05$). 4-bosqich talabari 2-bosqich talabalariga nisbatan o'z-o'zini qabul qilish darajasida sezilarli darajada yuqori ko'rsatkichlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Natijalar statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini anglatadi. 4-bosqich talabalarida o'z kamchiliklarini va yutuqlarini hamda o'zlarini to'liq va realistik tarzda qabul qilish, o'z qadr-qimmatlarini anglash va o'zlariga ijobiy munosabatda bo'lish ko'nikmalari rivojlanganligi, o'z-o'zini hurmat qilish, o'ziga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishlari, o'z tajribalaridan saboq olish, xatolarini tan olish hamda o'z yutuqlarini qadrlashlari kuzatildi. Shuningdek, 4-bosqich talabari o'z-o'zini qabul qilish darajasida yuqori natijalarga ega bo'lishi, ularning tajriba va shaxsiy rivojlanishlari bilan bog'liqdir.

3-jadval

A.V. Karpovning "Shaxsdagi refleksiya darajalarini o'rganish metodikasi" natijalari, n=450

Shkalalar	O'rtacha(M)		Farqlar t
	2-kurs n=240	4-kurs n=210	
Vaziyatli refleksiya	10,5	8,4	-2,2*
Retrospektiv refleksiya	8,1	10,6	-2,6*
Perspektiv refleksiya	8,5	10,2	-2,7*

3-jadvalda "Shaxsdagi refleksiya darajalarini o'rganish metodikasi" bo'yicha olingan natijalar berilgan. Jumladan, «vaziyatli refleksiya» ($t=2,2$; $p\leq 0,05$), «retrospektiv refleksiya» ($t=2,6$; $p\leq 0,05$) hamda «perspektiv refleksiya» ($t=2,7$; $p\leq 0,05$) omillarida ishonchi farqlar kuzatildi.

Metodikaning dastlabki «vaziyatli refleksiya» omili bo'yicha ahamiyatli tafovutlar aniqlangan bo'lib, 2-bosqich talabalarida yuqori natija kuzatildi ($t=2,2$; $p\leq 0,05$). Bu shuni anglatadiki, 2-bosqich talabalarida vaziyatni tezkor baholash, muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilish jarayonida tezda refleksiya qilish qobiliyati yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Jumladan, 2-bosqich talabalarida vaziyatli refleksiya qobiliyatlarida yuqori natijalarga ega bo'lib, bu ularning o'quv jarayoniga faol moslashuvchanligi va qaror qabul qilish jarayonida tezda refleksiya qilish qobiliyatlari bilan bog'liqligi aniqlandi.

Navbatdagi «retrospektiv refleksiya» omili bo'yicha, 2-bosqich talabalariga qaraganda 4-bosqich talabalarida yuqori natija kuzatildi ($t=2,6$; $p\leq 0,05$). Mazkur natijalar tahliliga ko'ra, 4-bosqich talabalarida o'tgan tajribalarni tahlil qilish, o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan aniq xulosalar chiqarish, o'z faoliyati, qarorlari va natijalarini baholash orqali o'zini anglash va o'zini rivojlantirish darjasi yuqoriligi dalillandi. Jumladan, 4-bosqich talabalarining retrospektiv refleksiya qobiliyatlarining yuqori darajada rivojlanishi ularning tajriba orttirish, o'z-o'zini anglash va o'z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatlari bilan bog'liqdir. Bu ularga kelajakdagi qarorlarini yaxshiroq shakllantirish va shaxsiy rivojlanishga yo'naltirilgan amaliy xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Metodikaning so'nggi «perspektiv refleksiya» omili bo'yicha 4-bosqich talabalarida ijobiy natijalar qayd etildi ($t=2,7$; $p\leq 0,05$). Bu shundan dalolat beradiki, 4-bosqich talabalarining kelajakdagi rejalari, maqsadlari va strategiyalarini tahlil qilish va ularga erishish uchun zarur bo'lgan harakatlarni rejalashtirish qobiliyati yuqori ekan. Mazkur natija ularning uzoq muddatli qarorlar qabul qilish va kelajakdagi vaziyatlarni oldindan baholash darajasini belgilaydi. 4-bosqich talabalarida perspektiv refleksiya qobiliyatlarida yuqori natijalarga ega bo'lib, bu ularning kelajakdagi rejalari va maqsadlarini aniqroq shakllantirish qobiliyatlari bilan bog'liqdir. Ularning tajribasi va o'qishni tugatishga yaqin bo'lishlari ularga o'z kelajaklari haqida chuqurroq o'ylash va professional rivojlanish yo'lidagi qadamlarini rejalashtirish imkoniyatini beradi.

4-jadval

“Talabalarda o'ziga ishonchini rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini aniqlovchi so'rovnoma” natijalari, n=450

Shkalalar	O'rtacha(M)		Farqlar t
	2-kurs n=240	4-kurs n=210	
O'ziga ishonch	5,8	7,1	-2,4*
Boshqalarga ishonch	7,0	5,2	-2,3*
Emotsional barqarorlik	5,2	8,5	-2,5*
Kognitivlik	6,0	8,4	-2,6*

“Talabalarda o'ziga ishonchini rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini aniqlovchi so'rovnoma” bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahlil qilindi. Jumladan, «o'ziga ishonch» ($t=2,4$; $p\leq 0,05$), «boshqalarga ishonch» ($t=2,3$; $p\leq 0,05$), «emotsional barqarorlik» ($t=2,5$; $p\leq 0,05$) hamda «kognitivlik» ($t=2,6$; $p\leq 0,05$)

omillarida ishonchi farqlar kuzatildi.

Metodikaning dastlabki «o'ziga ishonch» omiliga ko'ra, 4-bosqich talabalarida yuqori natija qayd etildi ($t=2,4$; $p\leq 0,05$). Mazkur natijalar tahliliga ko'ra, 4-bosqich talabalarining o'ziga ishonchining yuqoriligi, ularning kasbiy tayyorlik darajasining oshganligidan dalolat beradi. Shuningdek, ular o'zlarining bilimlari va ko'nikmalarini chuqurroq o'zlashtirganligi va tajriba orttirganligi aniqlandi. Bu tajribalar ularning o'ziga bo'lgan ishonchlarini oshirishga xizmat qildi. Jumladan, 4-bosqich talabalar orasida o'ziga ishonchning yuqori bo'lishi, ularning professional tayyorlik darajasining yuqoriligi, amaliy tajribalar, shaxsiy rivojlanish va maqsadga erishish motivatsiyasining yuqoriligi bilan bog'liq ekan. Bu bosqichda talabalar o'z bilim va ko'nikmalariga bo'lgan ishonchlarini mustahkamlash va kelajakdagi kasbiy faoliyatlarini muvaffaqiyatli boshqarishga tayyor ekanliklarini ko'rsatadi.

Metodikaning navbatdagi «boshqalarga ishonch» omili bo'yicha 2-bosqich talabalarida yuqori natija kuzatildi ($t=2,3$; $p\leq 0,05$). Ma'lum bo'lishicha, 2-bosqich talabalarining boshqalarga ishonchining yuqori bo'lishi, ular o'zlarining ijtimoiy integratsiya jarayonida muvaffaqiyatli bo'lganliklarini ko'rsatadi. Ularda boshqalar bilan samarali muloqot qilish, ularni yaxshiroq tushunish va o'zaro ishonchni mustahkamlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lishlari ma'lum bo'ldi. Jumladan, 2-bosqich talabalar orasida boshqalarga ishonchning yuqori bo'lishi, ijtimoiy integratsiya, jamoaviy faoliyatlar, o'zaro hamkorlik, ijtimoiy ko'nikmalar va samarali tashkiliy ishlarning yuqori darajadagi rivojlanishi bilan izohlanadi.

Keyingi «emotsional barqarorlik» omili 4-bosqich talabalarida yuqori natija qayd etildi ($t=2,5$; $p\leq 0,05$). Bu shundan dalolat beradiki, 4-bosqich talabalarining emotsional barqarorligi ularning o'qish jarayonida orttirilgan tajriba va rivojlanish bilan belgilanadi. Ularning turli vaziyatlarda emotsional muvozanatni saqlashni o'rganganligi, stressli vaziyatlarda ham barqarorlikni saqlash imkonini berar ekan. Jumladan, 4-bosqich talabalarining shaxsiy rivojlanish va emotsional intellekt sohasida ancha yuksalishlarga erishganligi, ularning emotsional barqarorligini oshiradi va turli vaziyatlarga moslashish qobiliyatini kuchaytiradi.

Metodikaning so'nggi «kognitivlik» 4-bosqich talabalarida ijobiy natija aniqlandi ($t=2,6$; $p\leq 0,05$). Bu shuni anglatadiki, 4-bosqich talabalarining kognitivlik darajasi yuqori bo'lishi, ularning yuqori darajadagi analitik fikrlash, muammolarni hal qilish va bilimni qo'llash qobiliyatlariga ega ekanliklarini ko'rsatadi. Jumladan ularda kognitivlik darajasining yuqori bo'lishi, ularning kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish, amaliy tajriba orttirish, mavzularni chuqur o'zlashtirish, samarali o'rganish strategiyalarini qo'llash va intellektual rivojlanishlari bilan belgilanadi. Bu bosqichda talabalar yanada murakkab va yuqori darajadagi kognitiv faoliyatlarni amalga oshirishga tayyor bo'lar ekanlar.

5-jadvalda "Talabalardagi o'ziga ishonchining psixologik xususiyatlarini aniqlovchi so'rovnoma" va "O'z xulq-atvorini tartibga solish uslubi" o'rtasidagi korrelyatsion bo'lanish berilgan.

5-jadval

“Talabalarda o'ziga ishonchini rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini aniqlovchi so'rovnoma” va “O'z xulq-atvorini tartibga solish uslubi” o'rtasidagi korrelyatsion bo'lanish natijalari, n=450

Omilar	O‘ziga yo‘nalganlik	Odamlarga yo‘nalganlik	Faoliyatga yo‘nalganlik
O'ziga ishonch	0,32*	0,14	0,40*
Boshqalarga ishonch	0,12	0,33*	0,40*
Emotsional barqarorlik	0,31*	0,09	0,06
Kognitivlik	0,41*	0,07	0,34*

“Talabalardagi o‘ziga ishonchini rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini aniqlovchi so‘rovnomasi” hamda “O‘z xulq-atvorini tartibga solish uslubi” o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar natijalariga ko‘ra «O'ziga ishonch» omili «O‘ziga yo‘nalganlik» ($r=0,32$; $p\leq 0,05$) hamda «Faoliyatga yo‘nalganlik» ($r=0,40$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy bog‘lanishlarga ega ekanligi aniqlandi. Mazkur holat bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘ziga, o‘z yutuqlari va shaxsiy xususiyatlariga yo‘nalganlikning ulardagi o‘ziga bo‘lgan ishonchni ortishiga olib kelishini anglatadi. O‘ziga yo‘nalgan bo‘lajak o‘qituvchi o‘z imkoniyatlari, qadr qimmatini yaxshi biladi, shunga mos ravishda o‘zini hurmat qiladi. Bu holat esa ularni o‘ziga va qarorlariga bo‘lgan ishonchni ortishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari natijalarda faoliyatga yo‘nalganlik ham o‘ziga ishonchni orishiga olib kelishi kuzatilgan. Darhaqiqat, insonning faoliyatga yo‘nalganligi praksik hislarning usutvorligi bilan bog‘liq bo‘lib, bunday o‘z mehnati natijasi, shu bilan birga mehnat qilish jarayonini o‘zidan zavqlanishni biladi. O‘z mehnatini qadrlaydigan, faoliyatidagi qarorlarni ratsional qabul qiladigan insonning ham o‘ziga bo‘lgan ishonchi yuqori bo‘ladi. Bu jarayonda bo‘lajak o‘qituvchi o‘z faoliyati “mahsulini” biladi, tushunadi, shu boisdan o‘z qarorlari, o‘z intilishlarining samarasiga ishonadi. Shu boisdan mazkur mezonlar orasida ijobiy ahamiyatli bog‘lanishlar aniqlangan.

Ilmiy izlanishlarimizdagi «Boshqalarga ishonch» omili «Odamlarga yo‘nalganlik» ($r=0,33$; $p\leq 0,05$) va «Faoliyatga yo‘nalganlik» omili ($r=0,40$; $p\leq 0,05$) bilan ahamiyatli ijobiy bog‘lanishlarga ega ekanligi aniqlangan. Bo‘lajak o‘qituvchilardagi boshqalarga ishonch shaxslararo munosabatlarning konstruktivligini ta‘minlaydi. Talabalar jamoasida o‘zgalarga ishonish guruhda samimiy muhitni shakllanishiga, didaktik jarayonni barqaror kechishini ta‘minlaydi. Bo‘lajak o‘qituvchilardagi boshqalarga ishonchning odamlarga yo‘nalganlik bilan ijobiy bog‘lanishlarga ega ekanligi tabiiy holat bo‘lib, ularning ota-onalari, oila a‘zolari, tengdoshlari va pedagoglari, rahbariyat bilan munosabatlarini o‘zida qamrab oladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlarini qurshab turgan ijtimoiy muhit bilan, insonlar jamoasi bilan konstruktiv muloqot o‘rnata olishi, bir-biriga ishonishi uchun esa albatta emotsional qadriyatlarga asoslangan, ya‘ni o‘zaro hurmat, bir-biriga ishonch, o‘zaro bir-birini qadrlashni o‘zida mujasamlashtirgan munosabatda bo‘lishi lozim. Natijalarning ahamiyatli tomoni shundaki, talabalarning kasbiy faolyaiti insonlar auditoriyasiga yo‘naltirilgandir. Insonlar bilan ishlashda esa ularga ishonish muhtim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, mazkur mezonlar orasida ijobiy bog‘lanishlar aniqlangan. Bundan tashqari, bo‘lajak o‘qituvchilarning boshqarlarga ishonchi negizida ularning faoliyatga yo‘nalganligi yotadi. Chunki, faoliyatga yo‘nalgan inson o‘z mehnati va boshqalarning mehnatini ham qadrlaydi. Mehnat natijasini qadrlash esa shaxslararo munosabatlarda o‘zaro ishonchni shakllanishiga olib keladi. shu boisdan mazkur mezonlar orasida ijobiy ahamiyatli bog‘lanishlar kuzatilgan.

Ilmiy tadqiqotimiz davomida o'tkazilgan psixodiagnostik so'rovnomaning navbatdagi mezoni «Emotsional barqarorlik» omili bo'lib, u «O'ziga yo'nalganlik» ($r=0,31$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy ahamiyatli bog'lanishga ega ekanligi aniqlangan. Talabalarning emotsional barqarorligi o'zini va boshqalarning kechinmalarini tushunadi, to'g'ri baholaydi va o'z kechinmalarini boshqara oladi. Bunda esa talabalarning o'ziga yo'nalganligi ular o'z kechinmalarini to'g'ri tushunishlari, anglashlari, hislarini autent baholashlari, kechinmalar identifikatsiyasiga ustuvorlik berishlarini ta'minlaydi. Shu boisdan ham talabalardagi emotsional barqarorlik va o'ziga yo'nalganlik orasida ijobiy bog'lanishlar aniqlangan.

Navbatdagi mezon «Kognitivlik» omili bo'lib, u ham «O'ziga yo'nalganlik» ($r=0,41$; $p\leq 0,05$) va «Faoliyatga yo'nalganlik» ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy bog'lanishlarga ega ekanligi qayd etildi. Talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchdagi kognitivligi o'z fikrlarini dalillarga, aniq ma'lumotlarga asoslanganligi, har bir fikrini aniq daliliy asoslari borligini anglatadi. Bu esa talabalarning o'ziga, o'z imkoniyatlariga, o'z shaxsiga bo'lgan ishonchini yanada ortishiga xizmat qiladi. Qolaversa, o'ziga yo'nalgan talabalar o'ziga nima uchun ishonchi balandligini aniq dalillar va o'z turmush tajribasidagi holatlar bilan bog'lab asoslab bera oladi. Bundan tashqari, talabalarning o'ziga ishonishidagi kognitiv xususiyatlar faoliyat natijasi hamda mehnat, ta'lim jarayonidagi hodisalarni o'zi bilan ham bog'liqdir. Ta'lim jarayonidagi natijalar talabani o'ziga bo'lgan ishonchini ortishiga ham xizmat qiladi. Bu esa kognitivlik omilini faoliyatga va o'ziga yo'nalganlik bilan ijobiy bog'lanishiga olib kelgan. Qolgan mezonlar orasida ahamiyatli bog'lanishlar kuzatilmadi. Talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchi o'ziga, faoliyatga yo'nalganlikning emotsional barqarorlik va kognitivlik xususiyatlari bilan ustuvor determinatsiyalashganligiga asoslanib shaxs yo'nalganligi bilan identiv namoyon bo'lishi kuzatildi.

6-jadval

Talabalarda o'ziga ishonchini rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini aniqlovchi so'rovnomasi va "Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash" metodikasi o'rtasidagi korrelyatsion bo'lanish natijalari, n=450

Omillar	Samimiylik	O'z-o'ziga ishonch	O'z-o'zini idora qilish	O'z-o'ziga munosabatning aks etishi	O'z-o'zini qabul qilish
O'zigaishonch	0,34*	0,45*	0,38*	0,10	0,14
Boshqalargaishonch	0,29*	0,07	0,05	0,18	0,42*
Emotsionalbarqarorlik	0,14	0,43*	0,30*	0,15	0,12
Kognitivlik	0,08	0,09	0,33*	0,11	0,35*

“Talabalardagi o'ziga ishonchini rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini aniqlovchi so'rovnoma” hamda “Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash” metodikasi o'rtasidagi korrelyatsion bo'lanishlar natijalariga ko'ra «O'ziga ishonch» omili «Samimiylik» ($r=0,34$; $p\leq 0,05$), «O'z-o'ziga ishonch» ($r=0,45$; $p\leq 0,05$), hamda «O'z-o'zini idora qilish» ($r=0,38$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy bog'lanishlarga ega ekanligi aniqlandi. Bo'lajak o'qituvchilarning o'ziga bo'lgan shonchi shaxslararo munosabatlardagi refleksiya hisobiga samimiy munosabatlarni o'rnatish bilan determinatsiyalashganligi kuzatilgan. Bu esa bo'lajak o'qituvchining shaxslararo

munosabatlaridagi o‘zaro samimiylik ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini ortishiga olib kelishini ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari natijalarda o‘ziga ishonchning o‘z-o‘ziga ishonch bilan bog‘liqligi tabiiy holat bo‘lib, shaxsning o‘z imkoniyatlarini autent baholashi bilan bog‘liqdir. Bo‘ljak o‘qituvchilarning o‘ziga ishonchi ularning regulyativ jarayonlariga ham bevosita bog‘liq bo‘lib, kasbiy hamda shaxslararo munosabatlardagi murakkab vaziyatlarda shaxsning o‘zini idora qila olishi uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini yana bir karra ortishiga olib keladi. chunki, muloqotda, pedagogik jarayonda o‘z kechinmalari va xulq-atvorini nazorat qila olish ko‘nikmasini shaxsni avvalo o‘ziga bo‘lgan adekvat bahosini ko‘rsatadi. Bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini ta‘minlab beradi. Shu boisdan, mazkur mezonlar orasida ijobiy bog‘lanishlar aniqlangan.

Dissertatsiyamizning navbatdagi mezoni «Boshqalarga ishonch» omili «Samimiylik» ($r=0,29$; $p\leq 0,05$) va «O‘z-o‘zini qabul qilish» omili ($r=0,42$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy ahamiyatli bog‘lanishlarga ega ekanligi kuzatildi. Dissertatsiyamizdagi boshqalarga ishonch omilining samimiylik bilan bog‘lanishi tabiiy holatdir. Bu insonlarning shaxslararo munosabatda bir –biri bilan samimiy munosabatda bo‘lishi, bir-biriga ishonchini ta‘minlashi bilan bog‘liq. Chunki, biz odatda samimiy muloqotda bo‘lgan, har bir fikri aniq dalillarga asoslangan insonlarga so‘zsiz ishonamiz. Qolaversa, inson yolg‘onlardan iborat soxta munosabatlardan qochishga intiladi. bu esa muloqotda samimiy bo‘lgan insonga ishonch hissini shakllanishiga olib keladi. natijalarimizning qiziq tomoni shundaki, bo‘ljak o‘qituvchilar boshqalarga ishonish orqali o‘zini qabul qilishga urinadi. Chunki, o‘zaro ishonchga asoslangan munosabatlarda bo‘ljak o‘qituvchilar identifikatsiya va refleksiya mexanizmi asosida o‘zini qabul qiladi. Boshqacha aytganda suhbatdoshni o‘ziga qilayotgan munosabati, bildirayotgan ishonchi shaxsni o‘ziga beradigan bahosini barqarorlashtiradi va o‘zini qabul qiladi. Shu boisdan, mazkur mezonlar orasida ijobiy bog‘lanishlar aniqlang.

«Emotsional barqarorlik» omili «O‘z-o‘ziga ishonch» ($r=0,43$; $p\leq 0,05$) va «O‘z-o‘zini idora qilish» ($r=0,30$; $p\leq 0,05$) bilan ahamiyatli ijobiy bog‘lanishlarga ega ekanligi qayd etildi. Bo‘ljak o‘qituvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi uning emotsional barqarorligiga ham bog‘liq. Shaxsning emotsional barqarorligi shaxslararo munosabatlar negizida namoyon bo‘lib, uning o‘ziga bo‘lgan bahasi va ishonchini ta‘minlaydi. Shaxsning o‘zini xulq-atvori va kechinmalarini idora qila olishi ham emotsional barqarorligidan dalolat beradi. Bu esa bevosita bo‘ljak o‘qituvchilarning o‘ziga ishonchini ortishiga olib keladi. shu boisdan mazkur mezonlar orasida ijobiy bog‘lanishlar aniqlangan.

Diagnostik metodikaning navbatdagi mezoni «Kognitivlik» omili ham «O‘z-o‘zini idora qilish» ($r=0,33$; $p\leq 0,05$) va «O‘z-o‘zini qabul qilish» ($r=0,35$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy bog‘lanishlarga ega ekanligi qayd etildi. Bo‘ljak o‘qituvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini kognitiv asoslari ularning o‘z xulq-atvori va kechinmalarini idora qilish bilan bog‘liq ichki regulyativ jarayonlar hamda shaxsning o‘zini “boricha” qabul qilish ko‘nikmasi bilan determinatsiyalashgandir. Chunki, har qanday vaziyatda o‘zini tuta biladigan, o‘z yutuq va kamchiliklarini autent baholaydigan shaxs o‘z qarorlari va harakatlari, o‘y-fikrlaridagi aniqlikka ishonadi. Shu boisdan mazkur mezonlar orasida ijobiy bog‘lanishlar aniqlangan. Qolgan mezonlar orasida ahamiyatli bog‘lanishlar

kuzatilmagan. Xulosa qilib aytganda, shaxsning o‘ziga ishonchi yuqori bo‘lgan sari, uning o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati ham ijobiy bo‘lishi mumkin. Bu degani, o‘ziga ishongan pedagog bo‘lajak vaziyatlarda o‘zining shaxsiy qobiliyatlari va xatti-harakatlarini to‘g‘ri baholab, ijobiy yondashuvni namoyon qiladi. Ushbu bog‘liqlik shaxsning o‘zini qabul qilish darajasi, o‘zini qadrlashi va shaxsiy maqsadlariga erishish jarayonida qanday faoliyat yuritishi bilan chambarchas bog‘liq.

Demak, talabalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ularning o‘ziga bo‘lgan munosabati bilan bog‘liqdir. Talabalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini namoyon bo‘lishida shaxslararo munosabatlardagi samimiylilik talabalarning o‘z xulq-atvori va kechinmalarini idora qilish bilan bog‘liq ichki regulyativ jarayonlarni hamda ularni o‘zlarini qabul qilishga ta‘sir etishiga asoslanib shaxsning o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati muhim psixologik omil ekanligi aniqlandi.

7-jadval

Talabalarda o‘ziga ishonchini rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini aniqlovchi so‘rovnoma va “Shaxsdagi refleksiya darajalarini o‘rganish metodikasi” metodikasi o‘rtasidagi korrelyatsion bo‘lanish natijalari, n=450

Omillar	Vaziyatli refleksiya	Retrospektiv refleksiya	Perspektiv refleksiya
O'ziga ishonch	0,41*	0,17	0,34*
Boshqalarga ishonch	0,15	0,36*	0,15
Emotsional barqarorlik	0,12	-0,32*	0,13
Kognitivlik	0,30*	0,12	0,12


“Talabalarda o‘ziga ishonchini rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini aniqlovchi so‘rovnoma” hamda Shaxsdagi refleksiya darajalarini o‘rganish” metodikasi o‘rtasidagi korrelyatsion bo‘lanishlar natijalariga ko‘ra «O'ziga ishonch» omili «Vaziyatli refleksiya» ($r=0,41$; $p\leq 0,05$) va «Perspektiv refleksiya» ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) bilan ahamiyatli bog‘lanishlarga ega ekanligi qayd etildi. Talabalar, ya‘ni bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ayni damdagi o‘z xatti-harakatlari, kechinmalarini tushunishi, nazorat qilishi va vaziyatga mos ravishda proeksiyalashi uchun holatni autent baholay olishiga bog‘liqdir. Chunki vaziyat va undagi o‘z xulq-atvori va kechinmalarini tahlil qila olish ko‘nikmasi refleksiv xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchini to‘g‘ri qaror qabul qilishga undaydi. Bu esa talabalarning ayni damdagi vaziyatli refleksiya bog‘liq holda o‘ziga bo‘lgan ishonchini ortishiga xizmat qiladi. Talabalarning psixologik yetukligini ko‘rsatuvchi mezonlardan biri – bu uning kelajakni ko‘ra bilishi, o‘z xatti-harakatlarini natijasini to‘g‘ri prognozlay olishi bilan belgilanadi. Mazkur holat esa perspektiv refleksiya ta‘sirida yuzaga chiqib, shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchini ortishiga xizmat qiladi. Chunki perspektiv refleksiya yuqori bo‘lgan shaxs o‘z xatti-harakatlari va qarorlarida uzoqni ko‘zlay oladi va har qanday qarorlari istiqbolga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shu boisdan ham mazkur mezonlar orasida interkorrelyatsion bog‘lanishlar kuzatilgan.

Talabalaridagi «Boshqalarga ishonch» omili «Retrospektiv refleksiya» ($r=0,36$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy ahamiyatli bog‘lanishlarga ega ekanligi aniqlandi. mazkur holat

bo'lajak o'qituvchilar shaxslararo munosabatlarda suhbatdoshga, faoliyat jarayonida hamkoriga ishonch bildirishda o'z turmush tajribasi, hayotiy qarashlariga asoslanishini anglatadi. Talabalar boshqalarga ishonch bildirar ekan retrospektiv refleksiya uning qarshisida turgan shaxsni hayotiy tajriba bilan bog'liq "ichki nazorat"dan o'tkazadi. Turmush tajribasidagi ma'lumotlar bazasida bu toifa insonlarga qanday munosabatda bo'lishning o'ziga xos "qoidalari" mavjudligiga qarab, muloqotda ishonch uyg'onadi yoki aksincha ishonchsizlik yuzaga keladi. bir so'z bilan aytganda bo'lajak o'qituvchilarning boshqalarga ishonch bildirishi uning ijtimoiy turmush tajribasidagi tahlillariga bog'liqdir. Shu boisdan ikki mezon orasida ahamiyatli bog'lanishlar kuzatilgan.

Navbatdagi mezon «Emotsional barqarorlik» «Retrospektiv refleksiya» ($r=-0,32$; $p\leq 0,05$) bilan salbiy bog'lanishga ega ekanligi kuzatildi. Bizning ilmiy izlanishlarimizdagi qiziq holat shu yerda aniqlandi. chunki biz bilamizki, emotsional barqarorlik shaxsning psixologik yetukligini belgisi. Retrospektiv refleksiya esa insonni o'tmishdan olgan saboqlari asosiga qurilgan o'zini tahlil qilish jarayonidir. Aslida, bizning nazarimizda mazkur ikki mezon orasida ijobiy bog'lanishlar mavjud. Biroq, talabalardan olingan natijalarda buni aksini kuzatishimiz mumkin. Natijalarga ko'ra, talabalarning o'tmish bilan bog'liq refleksiv xususiyatlari, turmush tajribasi bilan bog'liq saboqlari yetarlicha emotsional barqarorlikni namoyon qilishiga olib kelmayapti. Aksincha, ijtimoiy turmush tajribasi bilan bog'liq refleksiyaning yetarlicha shakllanmaganligi, boshqacha aytganda "sodir bo'lgan hodisalardan tegishli xulosalar" chiqarmaganligi tufayli o'z kechinmalarini boshqarishda, emotsional barqarorlikni ta'minlashda ichki regulyativ jarayonlarni kuchli namoyon qilayotganliklarini kuzatishimiz mumkin. Bu holat ularning kasbiy va ijtimoiy turmush tajribasining yetarlicha shakllanmaganligi bilan bog'liqdir. Shu boisdan, ikki mezon orasida salbiy bog'lanishlar aniqlangan.

Diagnostik ishlarimizning navbatdagi mezoni «Kognitivlik» omili «Vaziyatli refleksiya» ($r=0,30$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy bog'lanishlarga ega ekanligi qayd etildi. Talabalarning o'ziga ishonchini asosi bo'lgan kognitivlik xususiyatini vaziyatli refleksiya bilan bog'liqligi talabaning "bugungi kun" natijalariga yo'nalganligi bilan bog'liq. Chunki, ayni damda va hozir sodir bo'layotgan hodisalarni tahlil qilar, ushbu vaziyatda o'zini imkoniyatlari, yutuqlarini introspektiv xulosalar ekan talaba aniq kognitiv determinantlarga murojaat qiladi. Boshqacha aytganda, "bugungi holatning sabablari" aniq dalillarga asoslangan bo'lganligi uchun real vaziyatlardagi qarorlariga ishonadi.



1 rasm. Talabalarda o'ziga ishonchini rivojlantirishning psixologik modeli

Bu qarorlar esa uni o'ziga bo'lgan ishonchini, dadilligini oshiradi. Bo'lajak o'qituvchilardagi o'ziga ishonchning kognitiv determinantlari vaziyatli refleksiya bilan bog'lanishi, ularning kasbiy va ijtimoiy turmush bilan bog'liq tajribasining

kamligidandir. Shu boisdan, mazkur mezonlar orasida ijobiy bog‘lanishlar kuzatigan. Qolgan mezonlar orasida ahamiyatli bog‘lanishlar kuzatilmagan. Dissertatsion izlanishlarimiz asosida xulosa qiladigan bo‘lsak, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ulardagi refleksiv xususiyatlarni shakllanganligiga bog‘liqdir. Xususan, talabalarda o‘ziga ishonchning namoyon bo‘lishi shaxsning ayni damdagi o‘z xatti-harakatlari, kechinmalarini tushunishi, nazorat qilishi va vaziyatga mos ravishda proeksiyalashi uchun holatni autent baholay olishining kognitiv determinantlari shaxslararo munosabatlardagi retrospektiv refleksiya bilan uyg‘un holda yuzaga chiqishi tufayli ulardagi refleksiv xususiyatlarning shakllanganlik darajasiga bog‘liq ekanligi kuzatilgan. Xulosa qilib aytganda, o‘ziga ishongan bo‘lajak o‘qituvchilar ko‘pincha yuqori refleksiya darajasiga ega bo‘lishadi. Ular o‘z tajribalarini tahlil qilish va o‘z harakatlarini qayta ko‘rib chiqish orqali o‘zlarini rivojlantirishga moyil bo‘lishadi. Shu bilan birga, o‘ziga past ishonch darajasiga ega bo‘lganlar refleksiya jarayonida kamroq ishtirok etishlari mumkin, bu esa o‘z rivojlanishlariga ta’sir ko‘rsatadi.

8-jadval

“Talabalarda o‘ziga ishonchini rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini aniqlovchi so‘rovnoma” natijalari, n=450

Omillar	Guruhlar	Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba	Farqlanish
		M ₁	M ₂	t	p
O'zigaishonch	Tajriba guruhi (n=180)	5,5	7,3	-2,1	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	5,6	5,7	-1,0	0,17
Boshqalarga ishonch	Tajriba guruhi (n=180)	6,9	9,3	-2,4	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	7,2	7,4	-1,3	0,10
Emotsional barqarorlik	Tajriba guruhi (n=180)	5,4	8,1	-2,7	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	5,6	5,8	-0,9	0,24
Kognitivlik	Tajriba guruhi (n=180)	7,0	9,4	-2,2	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	7,2	7,4	-1,0	0,23

Izoh: *p<0,05; **p<0,01; ***p<0,001.

Dissertatsiyaning «Talabalarning o‘ziga ishonchini rivojlantirishning psixologik trening dasturi va uni qo‘llash natijalari» deb nomlangan to‘rtinchi bobida talabalarning o‘ziga ishonchini rivojlantirishning ilmiy uslubiy asoslari va

tadqiqot obyektlaridan olingan natijalarning qiyosiy tahlili keltirilgan. Shuningdek, olib borilgan nazariy-empirik tahlillar asosida bo'lajak o'qituvchilarda o'ziga ishonchini rivojlantirishning psixologik tizimini rivojlantirish bo'yicha model, o'ziga ishonch hissini rivojlantirish mezonlari, darajalar va ko'rsatkichlar asosida maxsus psixologik rivojlantiruvchi trening dasturi ishlab chiqildi va uning samaradorligi o'rganildi.

9-jadval

“Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash” metodikasi natijalari, n=450

Omillar	Guruhlar	Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba	Farqlanish
		M ₁	M ₂	t	p
Samimiylik	Tajriba guruhi (n=180)	7,2	9,5	-2,4	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	7,3	7,5	-1,1	0,10
O'z-o'ziga ishonch	Tajriba guruhi (n=180)	7,2	9,6	-2,5	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	7,2	7,4	-1,4	0,10
O'z-o'zini idora qilish	Tajriba guruhi (n=180)	7,8	10,2	-2,5	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	8,0	8,2	-1,2	0,18
O'z-o'ziga munosabatning aks etishi	Tajriba guruhi (n=180)	7,8	11,1	-2,3	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	7,9	8,1	-1,3	0,12
O'z-o'zini qabul qilish	Tajriba guruhi (n=180)	7,2	9,4	-2,5	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	7,3	7,5	-0,8	0,20

Izoh: *p<0,05; **p<0,01; ***p<0,001

“Talabalarda o'ziga ishonchini rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini aniqlovchi” mualliflik so'rovnomamizdagi mezonlar bo'yicha rivojlantiruvchi trening dasturlarimizdan keyin ahamiyatli farqlar qayd etildi. Jumladan, “O'ziga ishonch” (t=-

2,1; $p < 0,05$), “Boshqalarga ishonch” ($t = -2,4$; $p < 0,05$), “Emotsional barqarorlik” ($t = -2,7$; $p < 0,05$) hamda “Kognitivlik” ($t = -2,2$; $p < 0,05$) omillarida sezilarli darajadagi o‘zgarishlar kuzatildi. Biz rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar davomida talabalarda introspeksiyaning kuchayishiga e‘tibor qaratib, individual refleksiyaning kuchayishiga olib keldik. Talabalar o‘zlarini tahlil qilgan ekanlar, o‘z shaxslariga nisbatan konstruktiv munosabatni shakllanishiga erishdik. Mashg‘ulotlardagi kaususli topshiriqlar talabalarning emotsional holatlarini barqarorlashtirishga, konstruktiv munosabat o‘rnatish uchun ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishga, o‘zini tahlil qilish orqali o‘z shaxsiga nisbatan ijobiy emotsional munosabatni tarkib topishiga xizmat qilgan. Natijada talaba o‘zini adekvat baholab, o‘ziga ishonchi ortganligi kuzatilgan. Nazorat guruhi vakillarining natijalarida ahamiyatli o‘zgarishlarning kuzatilmaganligi esa biz tomonimizdan taklif etilgan rivojlantiruvchi dasturning samaradorligini tasdiqlab beradi.

Dissertatsion tadqiqotda shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchini ko‘rsatib beruvchi muhim mezonlardan biri – bu uning o‘ziga bo‘lgan munosabatidir. Shu boisdan, nazorat tajribasida “Shaxsning o‘z-o‘ziga munosabatini baholash” metodikasidan olingan natijalari olindi.

“Shaxsning o‘z-o‘ziga munosabatini baholash” metodikasiorqali rivojlantiruvchi trening dasturlarimizdan keyin barcha omillarda ahamiyatli farqlar qayd etildi. Jumladan, “Samimiylik” ($t = -2,4$; $p < 0,05$), “O‘z-o‘ziga ishonch” ($t = -2,5$; $p < 0,05$), “O‘z-o‘zini idora qilish” ($t = -2,5$; $p < 0,05$) “O‘z-o‘ziga munosabatning aks etishi” ($t = -2,3$; $p < 0,05$) hamda “O‘z-o‘zini qabul qilish” ($t = -2,5$; $p < 0,05$) omillarida sezilarli darajadagi o‘zgarishlar kuzatildi. Tajriba guruhining natijalaridan ko‘rib turibmizki, talabarda o‘ziga munosabat adekvatlashgan. Bunda talabalarning o‘ziga munosabatini ijtimoiy determinanti hisoblangan shaxslararo munosabatlardagi samimiylik konstruktiv muloqot o‘rnatish ko‘nikmasini shakllantirish orqali barqarorlashtirildi. Talabalarning o‘ziga ishonchini ko‘rsatib beruvchi sub‘ektiv omillar, ya‘ni o‘ziga ishonch, o‘zini idora qilish, o‘zini qabul qilish, o‘ziga munosabat bevosita hissiy hamda kognitiv sohaga korreksiona ta‘sir etish orqali rivojlantirildi. Eng avvalo, talabalarning o‘zi haqidagi tasavvurlari adekvatlashtirildi va o‘ziga ijobiy emotsional munosabat shakllantirildi. Shu orqali bo‘lajak o‘qituvchining o‘zini qabul qilishi hamda o‘ziga bo‘lgan ishonchining ichki asoslari mustahkamlandi. Nazorat guruhi vakillarining natijalarida o‘zgarishlarni kuzatilmaganligi biz tomonimizdan taklif etilgan rivojlantiruvchi dasturning samaradorlik darajasini yana bir karra tasdiqlash imkonini beradi.

XULOSA

«Talabalarning o‘ziga ishonchi namoyon bo‘lishining psixologik determinantlari» (pedagogik oliy ta‘lim muassasalari misolida) mavzusidagi dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotda quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Talabalarning o‘ziga ishonchini rivojlanishi shaxsiy, kasbiy, jamoaviy, institutsional, ijtimoiy darajasini baholashda shaxsning o‘z o‘ziga munosabati, o‘ziga

ishonch, shaxs yo'nalganligining psixologik xususiyat negizida ustuvor namoyon bo'lishiga asoslanib, emotsional barqororlik, kognitivlik omillariga bog'liq ekanligi dalillandi;

2. Talabalarning o'ziga ishonch hissini rivojlanishi shaxsning o'zini boshqarishi, talabalarning o'zini emotsional qabul qilishi va o'ziga hissiy munosabatini yoshga oid sifatlarga bog'liq ravishda ustuvor namoyon bo'lishiga asoslanib, dinamik xususiyatga ega ekanligi asoslandi;

3. Talabalarda o'ziga ishonchining psixologik xususiyatlari ikkinchi kurslarda vaziyatni tezkor baholash, muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilish (vaziyatli), to'rtinchi kurslarda o'z faoliyati, qarorlari va natijalarini baholash orqali o'zini anglash (retrospektiv), kelajakdagi vaziyatlarni oldindan baholash (perspektiv) sifatlarining ustuvorligiga asoslanib, shaxsdagi refleksiya darajasiga bog'liq ekanligi dalillandi;

4. Pedagogik ta'lim jarayonida o'zaro munosabatlaridagi samimiylilik, konstruktiv muloqat ko'nikmasini barqarorlashtirishda o'ziga ishonchni ko'rsatib beruvchi subektiv omillar o'ziga ishonch, o'zini idora qilish, o'zini qabul qilish, o'ziga munosabat hissini (o'ziga emotsional munosabat), kognitiv (o'z o'zini tavsiflash) xususiyatlarni ustuvorligi tufayli talabalarning o'ziga ishonchini rivojlanishi psixologik xususiyatga ega ekanligi dalillandi;

5. Talabalarda o'ziga ishonchini rivojlantirishning psixologik modeli shaxsdagi refleksiv jarayonlarni shakllanishiga erishish muhimligi tufayli "mustaqillik", "o'ziga yo'nalganlik" komponentlarini kiritish asosida takomillashtirildi;

6. Talabalarda, o'zlarining o'quv faoliyatlari va kasbiy tayyorgarliklariga bo'lgan motivatsiyalarini yuqori darajada saqlab qolishlari, faoliyatlarini samarali tarzda rejalashtirib, maqsadga erishishga qaratilgan, rejalashtirilgan qadamlarni amalga oshirishlari hamda o'zlari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga, yangi tajribalar orttirishga va professional faoliyatda muvaffaqiyatga erishishga intilishlari asoslandi.

«Talabalarning o'ziga ishonchi namoyon bo'lishining psixologik determinantlari» (pedagogik oliy ta'lim muassasalari misolida)» tadqiq etish asosida quyidagi **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. O'ziga ishonchni rivojlantirishga yo'naltirilgan interaktiv va amaliy mashg'ulotlarni o'quv dasturlariga kiritish kerak.

2. Talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida jamoaviy loyihalar va guruhda ishlash usullarini qo'llash tavsiya etiladi. Bu talabalarni muloqotga kirishish va boshqalar bilan samarali hamkorlik qilishga undaydi.

3. Talabalar uchun psixologik maslahat berish xizmatlarini kengaytirish va ularni o'ziga ishonchni oshirish bo'yicha individual dasturlar bilan ta'minlash lozim.

4. O'ziga ishonchni oshirish uchun talabalar real hayotiy vaziyatlarda o'zlarini sinab ko'rishlari uchun maxsus treninglar va rolli o'yinlarni tashkil etish maqsadlidir.

5. Talabalarni o'z maqsadlariga erishishga undaydigan va ularga yuqori motivatsiya beradigan dasturlar va tadbirlarni amalga oshirish kerak.

6. Talabalarning o'z faoliyatini tanqidiy baholash va kamchiliklarni aniqlash qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida, refleksiya jarayonlariga alohida e'tibor qaratish lozim.

7. Bo'lajak o'qituvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda ularda optimistic va pozitiv fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan treninglar va mashqlar o'tkazish zarur.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ
PhD 03/30.12.2021.Р.26.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
УЗБЕКИСТАНА**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
УЗБЕКИСТАНА**

ДАУКЕЕВА АЙДЫН ОРАЛБАЕВНА

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ПРОЯВЛЕНИЯ
УВЕРЕННОСТИ У СТУДЕНТОВ
(на примере педагогических высших образовательных учреждений)**

19.00.06 – Возрастная и педагогическая психология. Психология развития

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА
ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Ташкент - 2025

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под № B2023.3.DSc/P122

Диссертация выполнена в Национальный педагогический университет Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.psi-ik.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyo.net).

Официальные оппоненты:

Абдурасулов Рустам Абдураймович
доктор психологических наук, профессор

Шамсиев Уктам Бахриддинович
доктор психологических наук, профессор

Кабулов Косимбой Пиржонович
доктор психологических наук, доцент

Ведущая организация:

Маъмун университети

Защита диссертации состоится «__» _____ 2025 года в ____ часов на заседании Научного совета PhD03/30.12.2021.P.26.02 при Национальный педагогический университет Узбекистана. (Адрес: 100185, г.Ташкент, Чиланзарский район, ул.Бунёдкор,27. Тел.: (+99871) 276-82-32; факс: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национальный педагогический университет Узбекистана (зарегистрирована под №__). (Адрес: 100185, г.Ташкент, Чиланзарский район, ул.Бунёдкор, 27. Тел.: (+99871) 276-82-32).

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 года

(протокол реестра рассылки под №__ от «__» _____ 2025 года)

Ф.А.Акрамова

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор психологических наук (DSc), профессор

Н.Б.Атабаева

Секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор психологических наук (DSc), профессор

З.Т.Нишанова

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор психологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире проводятся научно-практические исследования по обучению, воспитанию физически и умственно развитых учащихся, своевременной поддержке их талантов, ориентированных на какую-либо область, а также развитию их уверенности в себе. Поданным ведущих мировых учебных заведений, в том числе Edutopia¹ (2019), более 75% педагогов в США не чувствуют себя достаточно уверенно в процессе работы над собой, в то время как поданным National Center for Education Statistics² (NCES) до 20% педагогов испытывают стресс и проблемы с доверием, связанные с работой, по данным European Commission³ (2020) более 30% будущих педагогов в некоторых странах Европы сталкиваются с проблемами в развитии уверенности в себе, поданным OECD⁴ (2020), во всем мире до 50% педагогов нуждаются в дополнительном профессиональном образовании для повышения эффективности своей работы и уверенности в себе.

В мире проблема развития чувства уверенности в себе всегда считалась одной из самых острых проблем, стоящих перед человечеством. Ведь от положительного решения этой проблемы во многом зависит социальный прогресс человека, его активность как личности и саморазвитие. Исследование, проведенное в Европейском Союзе в 2019 году, показывает, что 85% будущих учителей с высокой уверенностью в себе достигли своих профессиональных целей в сфере образования. Однако у людей с низкой самооценкой этот показатель составлял 55%. При этом особое внимание уделяется научным исследованиям по развитию у педагогов чувства уверенности в себе и обеспечению психологических условий для преодоления психологических внутренних барьеров.

В последние годы в новом Узбекистане продвигаемого в соответствии с целями и планами по дальнейшему развитию системы образования, определенными в стратегии “Узбекистан – 2030” всестороннее воспитание молодежи, обучающейся в нашей стране, создана необходимая нормативно-правовая база по концептуальным идеям по их научному, образовательному, воспитательному, творческому, духовному совершенствованию и, самое главное, развитию чувства уверенности в себе на основе принципа “воспитание нового поколения, способного взять на себя ответственность за судьбу и будущее нашей Родины”⁵. Также в 2023 году, по данным Министерства высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан, организовано более 20 тысяч мест практики для студентов, обучающихся по направлению педагогика. По результатам опроса студентов, прошедших практику, 75% студентов заявили, что у них повысилась уверенность в себе. При этом особое внимание уделяется

¹ <https://www.edutopia.org/article/implementing-student-surveys/>

² <https://nces.ed.gov/>

³ https://www.oecd.org/en/publications/talis-2018-results-volume-i_1d0bc92a-en.html

⁴ https://www.oecd.org/en/publications/talis-2018-results-volume-i_1d0bc92a-en.html

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2023 yil 29 sentyabr /<https://uz.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-29-09-2023>

научным исследованиям по развитию уверенности педагогов в себе, обеспечению психологических условий для устранения внутренних психологических препятствий.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в Законе Республики Узбекистан № ЗРУ-837 «О Конституции Республики Узбекистан» от 1 мая 2023 года, Указе Президента Республики Узбекистан №УП-158 «О Стратегии развития Узбекистана до 2030 года» от 11 сентября 2023 года, Указе Президента Республики Узбекистан №УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022–2026 годы» от 28 января 2022 года, Указе №УП-5812 «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы профессионального образования» от 6 сентября 2019 года, Указе от 19 апреля 2018 года № ПП-3674 «О создании Центра передовых технологий при Министерстве инновационного развития Республики Узбекистан», Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан №№ 472 «О дальнейшем совершенствовании системы подготовки кадров в области психологии» от 7 июня 2019 года, №287 «О мерах по организации деятельности Национальной системы развития профессиональной квалификации, знаний и навыков в Республике Узбекистан» от 15 мая 2020 года и другими нормативно-правовыми документами в данной области.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики. «Пути формирования и реализации системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, нравственно-просветительском образовательном развитии информатизации общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации⁶.

Научные исследования, направленные на развитие уверенности в себе будущих педагогов, проводятся в следующих ведущих образовательных организациях и научно-исследовательских центрах мира, в том числе: Калифорнийский университет (США), Стэнфордский университет (США), институт Swale Academies Trust (Великобритания), Американская Психологическая Ассоциация (США); Университет Bergich (Германия), Университет Мельбурна (Австралия), National University of Singapore (Сингапур), Университет Trento (Италия), Seoul of National University (Южная Корея), Университет Сорбонны (Франция); Федеральный ресурсный центр психологических услуг в системе образования (Россия), Научно-исследовательский институт психологии при РАН (Россия) а также Московский Государственный университет им. М.В. Ломоносова (Россия).

В различных университетах мира проводятся исследования по развитию у будущих педагогов чувства уверенности в себе, в том числе получены следующие

⁶ <https://www.universityofcalifornia.edu>, www.stanford.edu, www.manchester.ac.uk, <https://www.apa.org>, [www.uni-wuppertal](http://www.uni-wuppertal.de), www.unimelb.edu.au, <https://nus.edu.sg>, www.unitn.it, <https://en.snu.ac.kr>, <https://www.sorbonne-universite.fr/en>, <http://www.mapn.su>, www.pirao.ru, msu.ru.

